

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatda 2 572 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 585 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligining 22,7 % i) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 561 tasi (21,8 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 189 tasi (7,3 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 174 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga va 156 tasi (6,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 87 455,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Navoiy viloyati	87 455,5	109,3
Navoiy sh.	75 099,6	109,3
Zarafshon sh.	433,8	97,2
G'ozg'on sh.	108,7	107,8
tumanlar:		
Karmana tumani	5 584,0	95,8
Konimex tumani	472,7	101,7
Qiziltepa tumani	916,1	104,1
Navbahor tumani	692,9	102,8
Nurota tumani	299,4	104,3
Tomdi tumani	46,9	104,7
Uchquduq tumani	300,8	106,6
Xatirchi tumani	836,1	91,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 79 578,8 ming so'm tashkil etdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (447 492,7 ming so'm), Karmana tumanida (39 215,6 ming so'm) hamda Konimex tumanida (12 739,4 ming so'm) aholi jon boshiga ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, G'og'on shahrida (106,6 %), Tomdi tumanida (106,4 %), Navoiy shahrida (105,9 %) hamda Uchquduq tumanlarida (105,6 %) yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 72 690,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 10 838,4 mlrd so'm (12,4 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3 723,4 mlrd so'm (4,3 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 203,0 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 19,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 66,6 % ga oshgan), 52,5 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (28,7 % ga ko'paygan), 1 037,5 ming tonna sement (13,4 % ga kamaygan) hamda 267,1 ming m³ azot (6,3 m³ ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	14,7	11,6	19,3
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	39,4	40,8	52,5
Yogurt, tonna	6,1	2,3	13,4
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, ming d	1 350,5	1 761,4	1 190,8
Azot, ming m ³	35,5	42,4	267,1
Argon, ming m ³	86,9	601,1	906,7
Mochevina (karbamid), ming t azot	97,2	123,7	132,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, ming t	3,8	4,6	6,9
Portlandsement, ming t	1 468,3	1 198,5	1 037,5
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming t	39,1	147,2	159,5

*2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 81,6 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,0 % (2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,8 % (9,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,9 % (82,9 %), quiyi texnologiyali 8,1 % (7,7 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan issiqlik elektr stansiyalari (IEMLardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi 73,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 92,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Issiqlik elektr stansiyalari (IEMLardan tashqari) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kvt.s	5 277,9	5 694,7	4 157,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 531,6	2 556,8	2 360,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 6,4 m ga, oqava suvlarning shlamni 28,7 m % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 53,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun*	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	24,2	25,3	162,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	74,2	73,4	39,1
Oqava suvlarning shlamni, mlrd so'm	1,5	1,0	27,5

*2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirdorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 7 789,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 8,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv'i ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv'i materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruuhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruuhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyy-hajmi-qiyamatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Suyarov
79 223-33-29 (8510)

Manzil:

